

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026  
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI .....	10
<b>Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna</b>	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА .....	19
<b>Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	28
<b>Габбарова Ильмира Володиевна</b>	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH .....	34
<b>Amirov Shavkat Rahmatullayevich</b>	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ .....	41
<b>Усманова Азиза Баходировна</b>	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH .....	46
<b>Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	55
<b>Alimova Dilafrō'z Tohir qizii</b>	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	61
<b>Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi</b>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR .....	67
<b>Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdıyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi</b>	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH .....	82
<b>Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li</b>	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI .....	90
<b>Muxtorova Shaxlo Farxodovna</b>	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH .....	94
<b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY .....	99
<b>Sultanova Kamila Mukhtorali kizi</b>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	104
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH .....	110
<b>Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich</b>	



MHXS STANDARTLARIGA O'TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR .....	116
<b>Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna</b>	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI .....	120
<b>Turdikulova Moxira Maxmasharifovna</b>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI .....	125
<b>Kaxorova Zamira Safaraliyevna</b>	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO'Y BERISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI .....	131
<b>Dehqonov Oyatillo Mansurbek o'g'li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich</b>	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH... .....	136
<b>Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg'ashova Madina, Jo'rayev Muhiddin</b>	
JAHON MOLIYAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	140
<b>Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.</b>	
KORXONALARDA "TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH" KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI .....	144
<b>Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich</b>	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO'LLARI.....	149
<b>Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna</b>	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO'SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH .....	154
<b>Yusupova Feruza Yo'ldoshevna</b>	
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O'RNI .....	159
<b>Irgashev Anvar Farxodovich</b>	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	166
<b>Raxmankulov Sherzod Shokirovich</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР .....	171
<b>Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы</b>	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI .....	177
<b>O'tbosarov Abrorbek Adxamjon o'g'li</b>	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	182
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI.....	189
<b>Ro'zmetov Mansur</b>	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	193
<b>Shaydulova Marjona Alisher qizi</b>	
KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIYAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	198
<b>Rizoyev Farrux Hikmatilloevich</b>	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	203
<b>Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li</b>	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	208
<b>Komilova Nodira Abdirahmon qizi</b>	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ .....	218
<b>Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович</b>	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ.....	224
<b>Тожалиев Шохрух Талип ўғли</b>	
GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING .....	229
<b>Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna</b>	
О‘ЗБЕКИСТОНДА ТИЈОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ИННОВАТСИОН ХИЗМАТЛАРИ ОРҚАЛИ КАМБАГ‘АЛЛИКНИ КАМАУТИРИШ .....	234
<b>Azlarova Aziza Axrorovna</b>	



# O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH

## Azlarova Aziza Axrorovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
"Bank ishi" kafedrası, i.f.n., prof.,  
E-mail: [a.azlarova@tsue.uz](mailto:a.azlarova@tsue.uz)  
Telefon: +998 97 742-11-57

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda tijorat banklarining innovatsion xizmatlari orqali kambag'allikni qisqartirish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida raqamli bank xizmatlarining moliyaviy ommaboplikni oshirish, aholi daromadlari barqarorligini ta'minlash hamda iqtisodiy faollikni rag'batlantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, mavjud holat kompleks baholanib, bank innovatsiyalarining kambag'allikni kamaytirishga ta'sir etuvchi asosiy omillari aniqlangan. Tadqiqot natijalari tijorat banklari faoliyatida zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish kambag'allikni qisqartirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, innovatsion xizmatlar, raqamli banking, kambag'allik, moliyaviy inklyuziya, mikromoliyalash, fintex, kredit, raqamli iqtisodiyot.

**Аннотация.** В данной статье исследованы возможности сокращения бедности в Узбекистане посредством инновационных услуг коммерческих банков. В ходе исследования проанализирована роль цифровых банковских услуг в повышении финансовой доступности, обеспечении стабильности доходов населения и стимулировании экономической активности. Также проведён комплексный анализ текущего состояния и определены основные факторы влияния банковских инноваций на снижение уровня бедности. Результаты исследования показывают, что широкое внедрение современных финансовых технологий в деятельность коммерческих банков является одним из важных факторов сокращения бедности.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, инновационные услуги, цифровой банкинг, бедность, финансовая инклюзия, микрофинансирование, финтех, кредит, цифровая экономика.

**Abstract.** This article examines the opportunities for reducing poverty in Uzbekistan through innovative services provided by commercial banks. The study analyzes the role of digital banking services in increasing financial inclusion, ensuring income stability among the population, and stimulating economic activity. In addition, the current situation was comprehensively assessed, and the main factors influencing poverty reduction through banking innovations were identified. The research findings indicate that the widespread introduction of modern financial technologies into the activities of commercial banks is one of the key factors in reducing poverty.

**Keywords:** commercial banks, innovative services, digital banking, poverty, financial inclusion, microfinance, fintech, credit, digital economy.

## KIRISH

Global iqtisodiyotda kambag'allikni qisqartirish masalasi xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etilgan. Mazkur tashkilotlar tadqiqotlari natijalariga ko'ra, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi aholi daromadlarini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda kambag'allik darajasini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda kambag'allikni qisqartirish hamda moliyaviy tizimning ushbu jarayondagi roli o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik keng tadqiq etilgan. Xususan, tijorat banklarining innovatsion xizmatlari iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish va aholining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Jahon banki tadqiqotchilari Asli Demirgüç-Kunt va Leora Klapper (2013) moliyaviy ommaboplik darajasining oshishi aholining daromad olish imkoniyatlarini kengaytirishi hamda kambag'allik darajasini kamaytirishga



xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Raqamli moliya va fintex sohasidagi tadqiqotlarda Peter Gomber va hammualliflar (2017) raqamli bank xizmatlari tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi hamda moliyaviy xizmatlardan foydalanishni yanada qulaylashtirishini ko'rsatgan. Stijn Claessens (2016) esa fintex texnologiyalari an'anaviy bank tizimini transformatsiya qilib, moliyaviy xizmatlarning keng aholi qatlamlariga yetib borishini ta'minlashini ta'kidlaydi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (2021) hamda Jahon banki (2022) hisobotlarida raqamli moliyaviy xizmatlar, xususan, onlayn kreditlash, mobil to'lovlar va mikromoliyalash kambag'allikni qisqartirishning samarali vositalaridan biri sifatida baholangan. Shuningdek, Asian Development Bank (2023) tadqiqotlarida raqamli banking aholining iqtisodiy faolligini oshirish va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishda tijorat banklarining roli so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Ayniqsa, innovatsion bank xizmatlari — raqamli bank xizmatlari, mikromoliyalash va fintex yechimlari orqali aholining kam ta'minlangan qatlamlarini moliyaviy xizmatlarga jalb etish muhim omil sifatida qaralmoqda.

Mahalliy iqtisodchi olim B. Hodiev tadqiqotlarida iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashda moliya sektorining, xususan, bank tizimining samaradorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. Olimning fikricha, innovatsion moliyaviy xizmatlar aholi daromadlarini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi [4].

Shuningdek, Q. Abdullaev tadqiqotlarida tijorat banklari tomonidan raqamli xizmatlar — onlayn kreditlash va mobil banking tizimlarining joriy etilishi kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ijobiy turtki berayotgani qayd etilgan. Bu esa, o'z navbatida, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali kambag'allikni kamaytirishga samarali ta'sir ko'rsatmoqda [5].

N. Yusupova o'z ilmiy ishlarida moliyaviy inklyuziya darajasini oshirishda fintex texnologiyalarining ahamiyatini tahlil qilib, raqamli to'lov tizimlari hamda masofaviy bank xizmatlari aholining chekka hududlarda yashovchi qatlamlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirayotganini asoslab bergan [6].

D. Rahimov tadqiqotlarida mikrokreditlash va kichik moliyalashtirish dasturlari orqali aholining kam ta'minlangan qatlamlarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish mexanizmlari yoritilgan. Olimning fikricha, banklar tomonidan innovatsion kredit mahsulotlarini ishlab chiqish kambag'allikni qisqartirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi [7].

Bundan tashqari, S. Karimova ilmiy ishlarida raqamli bank infratuzilmasini rivojlantirish, jumladan, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali xizmat ko'rsatish sifatini oshirish aholi farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan [8].

Milliy darajada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12-may 2020-yildagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni<sup>1</sup> hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-oktabr 2020-yildagi "“Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-sonli Farmonida<sup>2</sup> bank tizimini raqamlashtirish, masofaviy xizmatlarni kengaytirish va moliyaviy ommaboplikni oshirish orqali aholi farovonligini yuksaltirish vazifalari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda onlayn bank xizmatlari va mobil to'lov tizimlarining rivojlanishi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini sezilarli ravishda oshirmoqda.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining innovatsion xizmatlari moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali kambag'allikni qisqartirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida ushbu yo'nalish samaradorligini yanada oshirish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda aholining moliyaviy savodxonligini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy adabiyotlarda alohida ta'kidlanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda tijorat banklarining innovatsion xizmatlari orqali kambag'allikni qisqartirish jarayonlarini o'rganish maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda mantiqiy umumlashirish usullari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking rasmiiy statistik ma'lumotlari, Jahon

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son <https://lex.uz/docs/-4811025>.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/doc-passport/-5030957>.

banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi hamda Asian Development Bank hisobotlari, shuningdek, mavzuga oid ilmiy adabiyotlardan manba sifatida foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan tizimli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda tijorat banklari nafaqat moliyaviy vositachi, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi muhim institut sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-330-son Qarori<sup>3</sup> doirasida 2025-yilda 5,4 million aholining bandligi ta'minlangan hamda 2,3 million kambag'al oilaning daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilgan [2].

Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy inklyuziya tushunchasi aholining barcha qatlamlarini moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish jarayoni sifatida talqin etiladi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, moliyaviy inklyuziya darajasining oshishi kambag'allikni 20-30 % gacha qisqartirish, kichik biznes faolligini kuchaytirish hamda daromadlar tengsizligini kamaytirishga xizmat qiladi.

Innovatsion bank xizmatlari ushbu jarayonning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Ular tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish (transaction cost theory) hamda axborot asimmetriyasini qisqartirish (asymmetric information theory) orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Innovatsion bank xizmatlari — bu tijorat banklari tomonidan zamonaviy texnologiyalar asosida yaratiladigan, mijozlar ehtiyojlarini samarali va qulay qondirishga yo'naltirilgan yangi yoki takomillashtirilgan moliyaviy xizmatlar majmuasidir.

Innovatsion bank xizmatlariga mobil hisobni boshqarish ilovalari, raqamli hamyonlar, onlayn kreditlash tizimlari va boshqa zamonaviy moliyaviy xizmatlar kiradi. Xususan, onlayn kredit va mikrokredit mahsulotlari kichik biznes hamda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Natijada aholi o'zini o'zi band qilish imkoniyatiga ega bo'lib, daromadlari ortmoqda. Shu bilan birga, raqamli to'lov tizimlari orqali moliyaviy operatsiyalarning soddalashuvi aholining vaqt va xarajatlarini tejashga xizmat qilmoqda. Bu esa iqtisodiy faollikni yanada rag'batlantiradi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bu borada: "Hozir banklar taklif qilayotgan kreditlar barcha tuman va shaharlar uchun bir xil. Endi o'zingiz ayting, Olmazor bilan Bo'zatovdagi imkoniyat va sharoitni taqqoslab bo'ladimi? Lekin oilaviy tadbirkorlik uchun ikkala tumanga bir xil, 17,5 foizli kredit ajratilyapti. Endi 37 ta 'og'ir' tumanda ushbu dastur doirasida kreditlar 12 foizdan beriladi", — deb ta'kidlagan [3].

O'zbekistonda kambag'allik darajasi "minimal iste'mol xarajatlari" mezonini asosida baholanadi. Mazkur ko'rsatkich 2021-yilda — 440 ming so'mni, 2022-yilda — 498 ming so'mni, 2023-yilda — 568 ming so'mni, 2024-yilda esa — 621 ming so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar aholining minimal ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan xarajatlarni dinamikasini ifodalaydi. Shu bilan birga, davlat dasturlari doirasida 5,4 million aholi ish bilan ta'minlangan hamda 840 ming aholining daromadlari oshirilgan. Bu jarayonda bank kreditlari asosiy moliyaviy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etgan.

Xususan, respublika tijorat banklari tomonidan 2025-yilda kambag'al oilalarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2,2 trillion so'm kredit va 265 milliard so'm moliyaviy ko'mak ajratilgan. Natijada 410 mingga yaqin mikrolojihalar ishga tushirilib, 840 ming aholining daromadlari oshirilgan. Shuningdek, 2026-yilda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash uchun 140 trillion so'm kredit ajratilishi rejalashtirilgan.

Jahon tajribasiga ko'ra, aholining farovonligini oshirish va barqaror turmush darajasini ta'minlashda oila tarkibi, bandlik darajasi, hududiy infratuzilma hamda daromad manbalarining barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, yosh bolalar sonining ko'pligi, yangi ish o'rinlariga ehtiyojning ortishi, qishloq hududlarida iqtisodiy faollikni kengaytirish zarurati hamda ayrim hududlarda rivojlanish salohiyatining mavjudligi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va samarali ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish uchun muhim omillar hisoblanadi.

Kambag'allik darajasini baholash muayyan mezonlar asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston amaliyotida ushbu jarayonda asosiy indikator sifatida "iste'mol savatchasi"dan foydalaniladi.

Jahon amaliyotida, xususan, Hindiston va Keniya tajribasida raqamli bank xizmatlari kambag'allik darajasini 10-15 % gacha qisqartirishga xizmat qilgani kuzatilgan. Ayniqsa, M-Pesa kabi mobil to'lov tizimlari aholining daromadlarini oshirishda muhim omil bo'lgan<sup>4</sup>. Mazkur tajriba O'zbekiston uchun ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida kredit tashkilotlari soni so'nggi yillarda izchil o'sib bormoqda. Jumladan, 2023-

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 23.09.2024 yildagi PQ-330-son <https://lex.uz/uz/docs/-7109778>.

4 World Bank (2022). Financial Inclusion Report.



yil boshida mamlakatda 199 ta kredit tashkiloti faoliyat yuritgan bo'lsa, 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 260 taga yetgan (1-jadval).

### 1-jadval

#### 2026-yil 1-fevral holatiga bank to'lov infratuzilmasi ko'rsatkichlari haqida ma'lumot<sup>5</sup>

№	Ko'rsatkichlar	Miqdori
1	Muomaladagi bank plastik kartalari soni	69 232 341
2	O'rnatilgan to'lov terminallari soni	433 289
3	Bankomat va infokiosklar soni	42 354
4	2026-yil yanvar oyida terminallar orqali tushgan tushum (mln so'm)	41 948 200

Kredit tashkilotlari sonining ortishi bilan bir qatorda, 2026-yil 1-fevral holatiga ko'ra, mamlakat tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni 69,2 milliondan ortiqni tashkil etgan. O'rnatilgan to'lov terminallari soni 433 mingdan ziyod, bankomat va infokiosklar soni esa 42 mingdan ortiqni tashkil etmoqda. Mazkur ko'rsatkichlar bank infratuzilmasining hududlar kesimida izchil kengayib borayotganini hamda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari yanada qulaylashayotganini ko'rsatadi.

2026-yil yanvar oyi davomida to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi qariyb 41,9 trillion so'mni tashkil etgan. Shuningdek, ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston banklarining jami aktivlari 2025-yil boshiga kelib qariyb 769,3 trillion so'mni, jami ustav kapitali esa 83,3 trillion so'mni tashkil qilgan (2-jadval)<sup>6</sup>.

### 2-jadval

#### O'zbekistonda raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar dinamikasi (2020-2025-yillar)<sup>7</sup>

Yil	(Jismoniy shaxslar (ming nafar	(Yuridik shaxslar (ming nafar
2020	462 9	691
2021	747 13	822,5
2022	234 19	968,6
2023	843 28	157 1
2024	455 51	461 1
2025	189 81	713 1

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2025-yillar davomida raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonida yuqori o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Xususan, jismoniy shaxslar soni 9,5 milliondan 81,2 milliongacha oshgan bo'lib, bu qariyb 8 barobardan ortiq o'sishni tashkil etadi.

Yuridik shaxslar sonida ham barqaror o'sish dinamikasi kuzatilib, ushbu ko'rsatkich 691 mingdan 1 713 minggacha yetgan. Mazkur holat bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonlari izchil kengayib borayotganini hamda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada ortganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarining kengayishi moliyaviy ommaboplikni oshirish, aholining turli qatlamlarini moliyaviy tizimga faol jalb etish hamda iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda (3-jadval).

### 3-jadval

#### Raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy ta'siri ko'rsatkichlari<sup>8</sup>

Ko'rsatkichlar	2020	2023	2025	O'zgarish
Onlayn kreditlar (mlrd so'm)	2 100	6 800	15 400	7,3 barobar
Mobil to'lovlar hajmi (trln so'm)	12,5	38,2	75,6	6 barobar
Mikrokredit oluvchilar (ming nafar)	320	780	1 450	4,5 barobar
Raqamli tranzaksiyalar ulushi (%)	18 %	47 %	72 %	54 foiz punktga oshdi

5 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari <https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem/3465027/>.

6 O'zbekistonning eng ishonchli banklari — 2025 yil.

7 Jadval O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

8 Jadval O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, raqamli bank xizmatlari iqtisodiy faollikka bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, onlayn kreditlar hajmining 7 barobardan ortiq oshgani aholi va biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayganini anglatadi.

Mobil to'lovlar hamda raqamli tranzaksiyalar ulushining ortishi iqtisodiyotda naqd pul aylanmasining qisqarishi va moliyaviy tizim samaradorligining oshishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, mikrokreditlar sonining 4,5 barobar ko'paygani kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun tadbirkorlik imkoniyatlari kengayganini ko'rsatadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, moliyaviy texnologiyalar (fintex) orqali bank xizmatlarining qishloq hududlariga kirib borishi moliyaviy inklyuziya darajasini oshirmoqda. Bu esa kambag'allik darajasi nisbatan yuqori bo'lgan hududlarda aholining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Bank innovatsion xizmatlari, jumladan, mobil banking, internet banking, onlayn kreditlash, raqamli hamyonlar va masofaviy to'lov tizimlari fintex texnologiyalarining amaliy ifodasi hisoblanadi. Mazkur xizmatlar orqali aholi, ayniqsa, an'anaviy bank xizmatlaridan yetarli darajada foydalanmagan qatlamlar moliyaviy resurslarga tezkor va qulay kirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Fintex va bank innovatsion xizmatlarining kambag'allikni qisqartirishdagi ijobiy ta'siri bir nechta asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Xususan, onlayn kreditlash va mikromoliyalash mexanizmlari orqali kichik biznes hamda oilaviy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa o'zini o'zi band qilish darajasining oshishiga hamda aholi daromadlarining ko'payishiga xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim jihat shundaki, raqamli to'lov tizimlari va mobil bank xizmatlari moliyaviy operatsiyalarni arzon, tezkor va qulay amalga oshirish imkonini beradi. Bu aholining vaqt va transport xarajatlarini kamaytirish bilan birga, iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Fintex texnologiyalari asosida ishlaydigan kredit skoring tizimlari — big data va sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini aniq baholash imkonini yaratadi. Bu esa kam daromadli aholi qatlamlariga kredit ajratish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, kredit risklarini kamaytirishga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, fintex va bank innovatsion xizmatlarining kambag'allikni qisqartirishdagi samaradorligi bir qator omillarga bog'liq. Jumladan, raqamli infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, aholining moliyaviy hamda raqamli savodxonligi, institutsional muhit va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida banklar tomonidan joriy etilayotgan innovatsion xizmatlar, xususan, onlayn kreditlash platformalari, mobil ilovalar va fintex yechimlari aholining moliyaviy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlarining kengayishi moliyaviy inklyuziya darajasini oshirish orqali kambag'allik ko'rsatkichlarini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Fintexning jadal rivojlanishi moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, kambag'allikni qisqartirishda muhim instrument sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, ushbu sohaning amaliy samaradorligini yanada oshirish uchun ayrim tizimli masalalarga alohida e'tibor qaratish zarur. Mazkur omillarni ilmiy jihatdan tahlil qilish fintex texnologiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Avvalo, fintex xizmatlaridan samarali foydalanishda aholining moliyaviy va raqamli savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham aholining ayrim qatlamlarida raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati mavjud. Shu bois, moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini kengaytirish innovatsion bank xizmatlarining ommalashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish ham dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda internet tezligi hamda mobil aloqa qamrovini kengaytirish fintex xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bu esa moliyaviy inklyuziya darajasining hududlar kesimida yanada muvozanatli rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada, kam ta'minlangan aholi qatlamlarining zamonaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

Bugungi kunda kibernetika xavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish masalalari ham alohida dolzarblik kasb etmoqda. Fintex xizmatlari raqamli muhitda amalga oshirilgani sababli, foydalanuvchilar xavfsizligini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois, zamonaviy himoya mexanizmlarini joriy etish va foydalanuvchilarning axborot xavfsizligi bo'yicha bilimlarini oshirish fintex xizmatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, kredit risklarini samarali boshqarish ham muhim ahamiyatga ega. Fintex platformalari orqali ajratiladigan onlayn kreditlarda qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini aniq baholash uchun zamonaviy kredit skoring modellarini, jumladan, big data va sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalarni joriy etish muhim



hisoblanadi. Bu kredit risklarini kamaytirish bilan birga, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat — fintex sohasini tartibga soluvchi institutsional va huquqiy bazani izchil takomillashtirishdir. Fintex sektori jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgani sababli, uni qo'llab-quvvatlovchi me'yoriy-huquqiy mexanizmlarni zamon talablari asosida rivojlantirish investitsiya muhitini yanada yaxshilash, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish hamda iste'molchilar huquqlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, aholining turli qatlamlari, xususan, keksa yoshdagilar, kam ta'minlangan oilalar hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan fuqarolar uchun qulay va inklyuziv sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa raqamli tenglikni ta'minlash, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda aholining iqtisodiy faolligini oshirishga yordam beradi.

Shu munosabat bilan, davlat va moliyaviy institutlar tomonidan moliyaviy savodxonlikni oshirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash hamda institutsional muhitni takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, banklar tomonidan moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan dasturlarning amalga oshirilishi aholining moliyaviy resurslardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga, iqtisodiy faollikni oshirishga hamda jamiyat farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekistonda tijorat banklarining innovatsion xizmatlari iqtisodiy jarayonlarni modernizatsiya qilish hamda kambag'allikni qisqartirishda muhim strategik omil ekanligini ko'rsatdi. Raqamli bank xizmatlarining kengayishi moliyaviy ommaboplik darajasini oshirib, aholining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilamoqda. Shuningdek, onlayn kreditlash, mikromoliyalash va mobil to'lov tizimlarining rivojlanishi kichik biznes faolligini rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining barqaror o'sishi iqtisodiyotda naqd pul aylanmasining qisqarishi va moliyaviy tizim samaradorligining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur holat, o'z navbatida, kam ta'minlangan aholi qatlamlarini moliyaviy tizimga faol jalb etish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Shu munosabat bilan tijorat banklari tomonidan innovatsion xizmatlar, xususan, onlayn kreditlash, mobil banking va mikromoliyalash xizmatlarini kengaytirish, raqamli infratuzilmani, ayniqsa hududlarda internet va aloqa sifati darajasini yanada yaxshilash, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlarni keng joriy etish, masofaviy bank xizmatlarida kiberxavfsizlik tizimlarini mustahkamlash, kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun qulay shartlardagi mikrocredit va ijtimoiy moliyaviy dasturlar ko'lamini rivojlantirish hamda fintex texnologiyalarini bank tizimiga integratsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, tijorat banklarining innovatsion xizmatlari O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning samarali iqtisodiy instrumentlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yo'nalishni izchil rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy o'sishi, moliyaviy barqarorligi hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli bank xizmatlari, onlayn moliyalash va zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning joriy etilishi aholining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirib, tadbirkorlik faolligini yanada rag'batlantirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, daromadlar o'sishi va aholi turmush darajasining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, moliyaviy inklyuziyani ta'minlash hamda innovatsion xizmatlar qamrovini kengaytirish kelgusida kambag'allik darajasini yanada pasaytirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12-may 2020-yildagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni <https://lex.uz/docs/-4811025>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-oktabr 2020-yildagi "“Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni <https://lex.uz/doc-passport/-5030957>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-330-son qarori. 2024-yil 23-sentabr. <https://lex.uz/uz/docs/-7109778>.
4. O'zbekistonda kambag'allik darajasini 5,8 foizdan 2,8 foizgacha kamaytirish bo'yicha ma'lumotlar.
5. "Oilaviy biznes uchun imtiyozli kredit maksimal miqdori 50 mln so'mga yetkaziladi" // O'zbekiston yangiliklari - Gazeta.
6. Hodiev B.Yu. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va moliya tizimi rivoji. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
7. Abdullaev Q. Bank tizimida innovatsiyalar va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri. - Toshkent, 2021.
8. Yusupova N. Moliyaviy inklyuziya va fintex texnologiyalari. - Toshkent, 2022.
9. Rahimov D. Mikromoliyalash va aholi bandligini oshirish masalalari. - Toshkent, 2020.



10. Karimova S. Raqamli bank xizmatlari va ularning samaradorligi. - Toshkent, 2023.
11. Mirzaev S.S. "Fintek texnologiyalar va bank tizimi rivoji" // Iqtisodiy taraqqiyot jurnali. - 2022.
12. Азларова А.А. "Проблемы устойчивого развития финансирования малого и среднего бизнеса в Республике Узбекистан" // Современне инновационне технологии и проблемй устойчивого развития в условиях сифровой экономики. - 2020. - С. 185-188.
13. Хо'jaev F.F. "Moliyaviy xizmatlar va aholi farovonligi" // Iqtisodiyot va ta'lim. - 2023.
14. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Rasmiy statistik ma'lumotlar (2020-2025-yillar).
15. Asli Demirgüç-Kunt, Leora Klapper. Measuring Financial Inclusion: The Global Findex Database. - Washington, DC: Jahon banki, 2013.
16. Peter Gomber, Robert J. Kauffman, Chris Parker, Bruce W. Weber. On the Fintech Revolution: Interpreting the Forces of Innovation, Disruption, and Transformation in Financial Services // Journal of Management Information Systems. - 2017.
17. Stijn Claessens. Financial Technology (FinTech) and Financial Services: Initial Considerations. - Xalqaro valyuta jamg'armasi, 2016.
18. Xalqaro valyuta jamg'armasi. Digital Financial Services and Financial Inclusion. - IMF Report, 2021.
19. Jahon banki. World Development Report: Finance for an Equitable Recovery. - Washington, DC, 2022.
20. Asian Development Bank. Asia-Pacific Digital Transformation Report: Banking and Financial Inclusion. - Manila, 2023.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)